

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLLIGI



**ORIENTAL**  
UNIVERSITETI

**PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK  
YO'NALISHLARDA  
YOSH TADQIQOTCHILARNING O'RNI**

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi*

*(2026-yil 10-fevral)*



**Toshkent – 2026**

## TAHRIR HAY’ATI

1. **M.A.NASIROVA** – filologiya fanlari nomzodi, professor (mas’ul muharrir).
2. **T.M.ISAQULOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
3. **Sh.G‘.KARIMOVA** – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
4. **J.B.MAMADIYOROV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
5. **U.B.MAMANAZAROV** – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).
6. **Y.B.MAXMUDOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).

To‘plamga kiritilgan maqola va tezislariga dalil, raqam va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’uldir.

## HAMKORLIK PEDAGOGIKASI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASH MASALALARI

**Hojiyeva Zulfiya O‘ktamovna**

Oriental universiteti “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi”  
kafedrasida dotsenti, PhD.

**Murodova Dilshoda, Oriental universiteti**

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi II bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni hamkorlikka asoslangan faoliyatga samarali tayyorlashning pedagogik qonuniyatlari va tamoyillari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, taqqoslash hamda kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida hamkorlik kompetensiyasining tarkibiy tuzilishi, tayyorlash jarayonidagi ichki aloqadorliklar va amaliy tamoyillar tizimi aniqlab berildi. Shuningdek, ilmiy natija sifatida hamkorlikka yo‘naltirilgan tayyorlov modelini ishlab chiqish uchun asos bo‘ladigan mezonlar taklif etildi.

**Аннотация.** В данной статье освещаются педагогические закономерности и принципы эффективной подготовки будущих учителей к деятельности, основанной на сотрудничестве. В процессе исследования были использованы методы теоретического анализа, сравнительного анализа и контент-анализа. На основе полученных результатов были определены структурные компоненты компетентности сотрудничества, внутренние взаимосвязи процесса подготовки и система практических принципов. В качестве научного вклада предложены критерии для разработки модели подготовки, ориентированной на сотрудничество.

**Abstract.** This article highlights the pedagogical patterns and principles of effectively preparing future teachers for cooperation-based activities. The study employed theoretical analysis, comparative analysis, and content analysis methods. Based on the obtained results, the structural components of cooperation competence, the internal interconnections of the training process, and a system of practical principles were identified. Additionally, as a scientific contribution, criteria for developing a cooperation-oriented training model are proposed.

**Kalit so‘zlar.** Bo‘lajak o‘qituvchi, hamkorlik kompetensiyasi, pedagogik qonuniyat, tamoyil, kasbiy tayyorgarlik, o‘quv hamjamiyati, refleksiya

**Ключевые слова:** Будущий учитель, компетентность сотрудничества, педагогические закономерности, принципы, профессиональная подготовка, учебное сообщество, рефлексия

**Keywords:** Future teacher, collaboration competence, pedagogical regularities, principles, professional preparation, learning community, reflection

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi faoliyati individual mahorat bilan cheklanib qolmay, turli subyektlar bilan hamkorlikda qaror qabul qilish, kelishuvga erishish, birgalikda loyihalash va natijani jamoaviy tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni talab etadi. Maktab va oliy ta’lim muhitida ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tobora murakkablashib borayotgan sharoitda hamkorlik o‘qituvchining kasbiy barqarorligi va samaradorligini belgilovchi tayanch mexanizmlardan biriga aylanadi. Bunda hamkorlik faqat “jamoada ishlash” ko‘nikmasi sifatida emas, balki pedagogik vaziyatni birgalikda tushunish, rollarni adolatli taqsimlash, muloqotni etik-me’yoriy asosda yuritish, nizolarni konstruktiv boshqarish, dalillarga tayanib fikr almashish va umumiy maqsadga xizmat qiladigan kelishuvga erishish kabi ko‘p qatlamli kasbiy kompetensiya sifatida talqin etiladi. Xalqaro tadqiqotlarda ham hamkorlik kompetensiyasi o‘qituvchi kasbiy kapitalining muhim tarkibiy qismi ekani, ayniqsa amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim, maktab hamjamiyatlari va professional learning community yondashuvlari doirasida keng asoslanadi [1], [2].

Mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashning pedagogik qonuniyatlari va tamoyillarini ilmiy asoslash hamda ularni oliy pedagogik ta’lim amaliyotida qo‘llash uchun kontseptual mezonlarni aniqlashtirishdan iborat. Maqsadga muvofiq ravishda quyidagi vazifalar hal etiladi: birinchidan, hamkorlik kompetensiyasining mazmuniy-strukturaviy tarkibini pedagogik nuqtayi nazardan aniqlashtirish; ikkinchidan, tayyorlash jarayonining barqaror takrorlanib turadigan ichki bog‘lanishlari sifatida namoyon bo‘ladigan qonuniyatlarni tizimlashtirish; uchinchidan, ushbu qonuniyatlardan kelib chiqadigan tamoyillarni ta’lim dizayniga tatbiq etish imkonini beradigan talqin va mezonlarni asoslash.

Empirik komponent sifatida pedagogik amaliyot materiallarini ikkilamchi tahlil qilishdan foydalanildi, ya’ni oliy ta’limdagi amaliyot hisobotlarida, metodik tavsiflarda va refleksiv yozuvlarda uchraydigan tipik qiyinchiliklar va muvaffaqiyat indikatorlari nazariy konstruksiyalar bilan qiyoslandi. Bunday dizayn bevosita eksperiment o‘tkazishni ko‘zlamasa-da, qonuniyat va tamoyillarni “faqat nazariya”dan ajratmay, amaliyotda uchraydigan real vaziyatlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Metodlar tanlovi tadqiqot maqsadiga mos bo‘lib, aynan qonuniyat va tamoyillarni asoslash uchun ko‘proq tushuntiruvchi, tizimlashtiruvchi va konseptual ravshanlashtiruvchi yondashuvlar zarurligi bilan izohlanadi.

Birinchi natija sifatida hamkorlik kompetensiyasining strukturasi aniqlashtirildi. U uch o‘zaro bog‘liq qatlamdan iborat deb talqin qilindi: qiymat-maqsadli qatlam, kommunikativ-amaliy qatlam va refleksiv-regulyativ qatlam. Qiymat-maqsadli qatlamda hamkorlikni kasbiy norma sifatida qabul qilish, umumiy natijaga mas’uliyatni bo‘lishish, o‘zaro hurmat va adolat tamoyillarini ichki motiv sifatida qabul qilish markaziy o‘rin tutadi. Kommunikativ-amaliy qatlam muloqot texnikasi, dalillash, tinglash, savol berish, kelishuv tuzish, vazifa taqsimlash va birgalikda rejalashtirish ko‘nikmalarini qamrab oladi. Refleksiv-regulyativ qatlam esa hamkorlik jarayonini tahlil qilish, nizolarni konstruktiv boshqarish, o‘z hissasini baholash, hamkorlar pozitsiyasini tushunish va zarur hollarda strategiyani qayta ko‘rib chiqish kabi metako‘nikmalarni mujassamlashtiradi. Ushbu strukturaviy talqin hamkorlikni faqat kommunikatsiya bilan cheklamasdan, uning normativ-axloqiy va boshqaruv-analitik jihatlarini ham tayyorlash mazmuniga kiritish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning ikkinchi muhim natijasi sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarni hamkorlikka tayyorlashga oid pedagogik qonuniyatlar tizimlashtirildi. Birinchi qonuniyatga ko‘ra, hamkorlik kompetensiyasi alohida vaziyatli mashqlar majmuasi orqali emas, balki izchil va barqaror hamkorlik tajribalarining ketma-ketligi asosida shakllanadi. Ijtimoiy-konstruktiv yondashuv vakillari (Vygotskiy, Johnson & Johnson) ta’kidlaganidek, talaba bir martalik guruh faoliyatida muvaffaqiyat ko‘rsatishi mumkin, biroq hamkorlikka haqiqiy tayyorlik faqat turli ta’limiy kontekstlarda muntazam ravishda takrorlangan tajriba natijasida ichki malakaga aylanadi. Ikkinchi qonuniyat hamkorlik samaradorligi subyektlararo rollar, vazifalar va kutilmalar aniqligi bilan uzviy bog‘liqligini ifodalaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rollar noaniq bo‘lgan ta’lim muhitida javobgarlik diffuziyasi yuzaga keladi va muloqot intensivligi oshgan taqdirda ham yakuniy natija pasayadi. Shu bois hamkorlikka tayyorlash jarayonida rollarni taqsimlash va mas’uliyatni aniqlashtirish metodik jihatdan muhim hisoblanadi. Uchinchi qonuniyat hamkorlikdagi muloqot sifatining intellektual komponenti bilan bog‘liq bo‘lib, kelishuvlar dalillash, umumiy mezonlar va baholash asoslariga tayangan taqdirdagina barqaror bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu esa metodik tayyorlash jarayonida faqat fikr almashish ko‘nikmalarini emas, balki birgalikda qaror qabul qilish mezonlarini ishlab chiqish madaniyatini shakllantirish zarurligini anglatadi. To‘rtinchi qonuniyat refleksiyaning hamkorlik faoliyatiga nisbatan tashqi element emas, balki uning sifatini belgilovchi ichki regulyator ekanini asoslaydi. Refleksiya yetarli darajada tashkil etilmagan guruh faoliyati takroriy xatolarni kamaytirmaydi, olingan tajriba esa umumlashtirilmaydi. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida

refleksiv tahlil mexanizmlarini tizimli ravishda joriy etish hamkorlik kompetensiyasining barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

Olingan natijalar hamkorlik kompetensiyasini ijtimoiy o‘rganish va birgalikda ma‘no qurish jarayoni sifatida ko‘radigan yondashuvlar bilan uyg‘unlashadi. Vygotskiy ta‘kidlaganidek, oliy psixik funksiyalar ijtimoiy o‘zaro ta‘sirida shakllanadi, so‘ngra shaxsning ichki rejasiga ko‘chadi [5]. Biz ajratgan birinchi qonuniyat, ya‘ni kompetensiyaning barqaror tajriba ketma-ketligi orqali shakllanishi aynan shu mexanizmi pedagogik tayyorlashga ko‘chiradi: hamkorlik epizodik mashq emas, ichkilashtiriladigan ijtimoiy amaliyotdir. Bunday talqin hamkorlikni “faol metod” sifatida instrumentallashtirib yuborishdan saqlaydi va uni kasbiy identifikatsiya bilan bog‘laydi.

Johnson va Johnsonning kooperativ o‘qitish haqidagi ishlari ham hamkorlikning samaradorligi o‘zaro bog‘liqlik, individual javobgarlik va yuzma-yuz rag‘batlantiruvchi o‘zaro ta‘sir kabi shartlarga tayanishini ko‘rsatadi [1]. Biz taklif qilgan rollar va me‘yorlarning shaffofligi tamoyili aynan individual javobgarlikning “tarqalib ketishi” muammosini oldini olishga xizmat qiladi, chunki rollar noaniqligida o‘zaro bog‘liqlik ham samarali ishlamaydi. Shu bilan birga, xalqaro adabiyotda ko‘pincha strukturaviy elementlar ta‘kidlangan bo‘lsa, ushbu maqolada hamkorlikning qiymat-maqсадli qatlamini alohida ajratish orqali normativ asos kuchaytirildi; bu esa o‘qituvchilik kasbida hamkorlik etikasi va ishonch omili alohida ahamiyatga egaligini nazariy jihatdan ravshanlashtiradi.

Hattie o‘zining meta-tahlillarida ta‘limiy ta‘sir omillarini baholarkan, samarali qayta aloqa va o‘qituvchining ko‘rinadigan o‘qitish strategiyalari ta‘lim natijalariga sezilarli ta‘sir qilishini asoslaydi [2]. Bizning refleksiv qayta aloqa tamoyilimiz ham aynan “ko‘rinadigan” jarayonni yaratadi: hamkorlikning o‘zi emas, balki hamkorlik qanday amalga oshgani va nima sababdan shunday natija chiqqani tahlil qilinadi. Bu yerda qayta aloqa faqat o‘qituvchidan talabagacha yo‘nalgan axborot emas, balki jamoaning o‘zini boshqarish mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtada, hamkorlikni tayyorlash jarayonida refleksiya komponentini chetlab o‘tish ko‘pincha “guruh ishladi, demak o‘rgandi” degan asossiz xulosaga olib kelishi mumkinligi ko‘rsatildi.

Dewey tajriba va refleksiya birligini ta‘limning markaziy mexanizmi sifatida ko‘radi, ya‘ni tajriba o‘zi-o‘zidan tarbiyaviy emas, u anglangan va qayta ishlangan taqdirdagina o‘quv natijasiga aylanadi [7]. Bizning to‘rtinchi qonuniyat ham aynan shu g‘oyani hamkorlik kontekstida aniqlashtiradi: refleksiya hamkorlik natijasining qo‘shimcha bezagi emas, balki uning sifati va ko‘chuvchanligini ta‘minlovchi ichki

regulyatoridir. Bu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning hamkorlikdagi tajribasini keyingi professional faoliyatga transfer qilish ehtimolini oshiradi, chunki talaba faqat vazifani bajarishni emas, vazifani bajarish jarayonini boshqarishni ham o‘rganadi.

Mahalliy va mintaqaviy pedagogik adabiyotlarda o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasining tarkibi, pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayonini tashkil etish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, Azizxodjayeva kasbiy-pedagogik tayyorgarlikda maqsad, mazmun va natijaning uyg‘unligini ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi [8]. Ushbu maqolada taklif etilgan mezonlar tizimi ana shu uyg‘unlikni hamkorlik kompetensiyasi misolida konkretlashtiradi: mazmuniy qatlamlar, jarayon sikllari va natija indikatorlari bir butun tizim sifatida ko‘rilmasa, hamkorlikka tayyorlash fragmentar bo‘lib qoladi. Kraevskiy didaktik tizimlarda qonuniyat va tamoyillarning o‘zaro aloqadorligini asoslab, tamoyillar aynan qonuniyatlardan kelib chiqishini ko‘rsatadi [3]. Bizning natijalarda ham shu mantiq saqlanadi: tamoyillar ro‘yxati ixtiyoriy emas, balki ajratilgan qonuniyatlarning amaliy dizayndagi ifodasidir. Slastyonin pedagogik faoliyatning subyekt-subyekt xarakterini ta’kidlab, muloqot va hamkorlik o‘qituvchi kasbiy pozitsiyasining ajralmas qismi ekanini ko‘rsatadi [4]. Ushbu maqolada esa subyektlik hamkorlikning etik-me’yoriy asoslari va dalillangan kelishuv mexanizmlari bilan boyitilib, amaliyotda uchraydigan “formal hamkorlik” xavfi kamaytiriladi.

Shu bilan birga, natijalarning cheklovlari ham mavjud. Kontseptual tahlil va ikkilamchi empirik materiallarga tayangan yondashuv qonuniyat va tamoyillarni asoslash uchun yetarli izoh beruvchi kuchga ega bo‘lsa-da, ularni miqdoriy baholash va turli ta’lim muassasalarida taqqoslab tekshirish kelgusida alohida empiric tadqiqotlarni talab qiladi. Ayniqsa, hamkorlik kompetensiyasining natija indikatorlarini diagnostika qilishda baholashning ishonchliligi va adolatliligi masalasi muhim bo‘lib qoladi, chunki jamoaviy natijada individual hissani aniqlash har doim metodik murakkablik tug‘diradi. Shuning uchun taklif qilingan mezonlar keyingi tadqiqotlarda kuzatuv, portfel tahlili va rubrikal baholash kabi usullar bilan tekshirilishi lozim.

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash hamkorlik kompetensiyasining qiymat-maqsadli, kommunikativ-amaliy va refleksiv-regulyativ qatlamlari birligi asosida talqin qilindi. Tayyorlash jarayonining barqaror qonuniyatlari sifatida tajribaning uzluksizligi, rollar va javobgarlikning aniqligi, dalillangan kelishuv hamda refleksiyaning ichki regulyatorligi asoslandi. Ushbu qonuniyatlardan kelib chiqib uzluksiz tajriba, shaffof me’yorlar, dalillangan kelishuv, refleksiv qayta aloqa va inkluziv ishtirok tamoyillari tizimi taklif etildi. Natijalar oliy pedagogik ta’limda hamkorlikka yo‘naltirilgan o‘quv dizaynini qurish, amaliyot

jarayonlarini qayta tashkil etish va baholash mezonlarini aniqlashtirish uchun nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida turli pedagogik yo‘nalishlar kesimida ushbu tamoyillar asosida ishlab chiqilgan dasturlar samaradorligini empirik sinovdan o‘tkazish va diagnostik vositalarni takomillashtirish maqsadga muvofiq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Johnson D. W., Johnson R. T. Cooperation and Competition: Theory and Research. Edina, MN: Interaction Book Company, 1989. 255 p.
2. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge, 2009. 378 p.
3. Z Hojiyeva. The role of co-creation in preparing future teachers for effective collaborative work.
4. Z Hojiyeva. Bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali hamkorlikka asoslangan faoliyatiga yo‘naltirish.[https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=iwLTjkhAAAAJ&citation\\_for\\_view=iwLTjkhAAAAJ:LkGwnXOMwfcC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=iwLTjkhAAAAJ&citation_for_view=iwLTjkhAAAAJ:LkGwnXOMwfcC)
5. Vygotskiy L. S. Myshlenie i rech. Moskva: Labirint, 1999. 352 s.
6. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977. 247 p.

## MUNDARIJA:

### I SHO‘BA. PSIXOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY ASOSLAR, AMALIY YONDASHUVLARI HAMDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.

1.	<b>Karshiyeva Dilafruz</b> <b>Suyunovna,</b> <b>Maxamatova Munisa</b> <b>Mamirzo qizi</b>	Ota obrazining psixologik talqini.....	<b>3</b>
2.	<b>Komiljon Murotmusaev,</b> <b>Mubina Abduqahhorova</b>	Developing emotional intelligence and public speaking competencies among students in the educational process.....	<b>6</b>
3.	<b>Komiljon Murotmusaev,</b> <b>Muyassar Zokirova</b>	Ayollar liderligini shakllantirishda oila va ta‘lim muhitining roli.....	<b>9</b>
4.	<b>Norqo‘ziyev Doniyorbek</b> <b>Baxtiyorovich,</b> <b>Ziyavuddinova Dilafruz</b> <b>Ma‘rufjon qizi</b>	Oilaviy munosabatlarda psixologik zo‘ravonlikning oldini olish mexanizmlari va psixoprofilaktika yo‘nalishlari.....	<b>13</b>
5.	<b>Norqo‘ziyev Doniyorbek</b> <b>Baxtiyorovich,</b> <b>Baxrombekova Iroda</b> <b>Zabihillo qizi</b>	Zamonaviy yoshlar ongida gender stereotiplarning shakllanishiga ommaviy axborot vositalarining psixologik ta‘siri..	<b>17</b>
6.	<b>Norqo‘ziyev Doniyorbek</b> <b>Baxtiyorovich,</b> <b>G‘ulomova Adiba Nozimjon qizi</b>	Yoshlarning ijtimoiy faolligini pasaytiruvchi psixologik omillar va ularni bartaraf etish mexanizmlari.....	<b>21</b>
7.	<b>D.N.Taylakova,</b> <b>U.B.Yusupova</b>	Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar orqali emotsional rag‘batlantirishning o‘quv jarayoniga ijobiy ta‘sirini aniqlash yo‘llari.....	<b>25</b>
8.	<b>Ungalov Akmal</b> <b>Navruzovich,</b> <b>Elamasova Gulchehra</b> <b>Shuhrat qizi,</b> <b>Asqatbekova Gulnozaxon</b> <b>Dilshodbek qizi</b>	Psychological features of the formation of professional interests in students.....	<b>31</b>
9.	<b>Mamanazarov Uchqun</b> <b>Burxon o‘g‘li</b>	O‘smirlarda axloqiy o‘zini anglashda atrof-muhitning o‘rni.....	<b>35</b>

10.	<b>Odilbekov Mansurbek</b> <b>Maxmudjon o‘g‘li,</b> <b>Nig‘matullayeva Fotima</b> <b>Sur‘atilla qizi</b>	Talabalarda vaqtni boshqarish ko‘nikmalari va akademik faollikning psixologik jihatlari.....	<b>39</b>
11.	<b>Rustamova Barno</b> <b>Abduxalilovna</b>	Motivatsiya: inson xulq-atvorini harakatga keltiruvchi kuch.....	<b>44</b>
12.	<b>Rustamova Barno</b> <b>Abduxalilovna,</b> <b>Dilinur Ismoilova,</b> <b>Muxlisa.Qobilova</b>	Stressga chidamlilikni shakllantirish usullari.....	<b>48</b>
13.	<b>Yusupov Umidjon Salim</b> <b>ugli,</b> <b>Qurbonova Diyora</b>	Oilada sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish psixologiyasi.....	<b>54</b>
14.	<b>Yusupov Umidjon Salim</b> <b>o‘g‘li,</b> <b>Hasnova Shahzoda</b>	O‘smirlarda xulq-atvor buzilishining ijtimoiy-psixologik jihatlari.....	<b>60</b>
15.	<b>Sanayev Alisher Komiljon</b> <b>o‘g‘li,</b> <b>Nosirova Zamira Xosil qizi,</b> <b>Hakimxo‘jayeva Feruza</b> <b>Rixsiboy qizi,</b> <b>Qodirova Roziya Raximovna</b>	Agressiv xulq-atvor – sabab va oqibatlar.....	<b>64</b>
16.	<b>Sultonova Diloobar</b> <b>Gayratovna</b>	Innovative methods of psychological support in inclusive education.....	<b>67</b>
17.	<b>Ortiqova Nodira</b> <b>Mamajonovna</b>	Tibbiyot yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarda gender tenglikka munosabat..	<b>72</b>
18.	<b>Ortiqova Nodira</b> <b>Mamajonovna</b>	Tibbiyot talabalari orasida kasbiy tanlov va gender omili.....	<b>76</b>
19.	<b>Ortiqova Nodira</b> <b>Mamajonovna</b>	Tibbiy kasbga kirishdagi gender to‘siqlarini kamaytirish.....	<b>79</b>
20.	<b>Axmatova Zilola</b> <b>Egamkulovna</b>	Shaxsning psixologik madaniyati shakllanishida hissiy intellektning o‘rni..	<b>83</b>
21.	<b>Aziza Karimova</b>	SCAMPER texnikasining talaba ijodiy-intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli.....	<b>86</b>

## **II SHO‘BA. MAXSUS TA‘LIM EHTIYOJIGA EGA BOLALARDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHGA METODIK YONDASHUVLAR HAMDA MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBANI HISOBGA OLGAN HOLDA OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA PEDAGOG KADRLARNI SIFATLI TAYYORLASH MUAMMOLARI.**

22.	<b>Quchqorova Nargiza Mamajonovna</b>	Bugungi kunda ustoz–shogird an’anasi: muammo va yechimlar.....	<b>90</b>
23.	<b>Quchqarova Nargiza Mamajonovna, Shukurova Malika Ma’rufjonovna</b>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining suggestiv qobiliyatlarini rivojlantrish metodikasi: psixologik-pedagogik tahlil.....	<b>94</b>
24.	<b>Quchqarova Nargiza Mamajonovna, Aytjanova Elmira Uzakbayevna</b>	Masofaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi va ta’lim oluvchining pedagogik roli.....	<b>97</b>
25.	<b>Quchqarova Nargiza Mamajonovna, Muhammedova Nodira Ravshanjon qizi</b>	Bo‘lajak o‘qituvchilarda media madaniyatni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>100</b>
26.	<b>Quchqarova Nargiza Mamajonovna, Aslonova Muqaddas Karimovna</b>	Gimnastika mashg‘ulotlari jarayonida bo‘lajak pedagoglarda kollaborativ yondashuv asosida estetik madaniyatni shakllantirish texnologiyalari.....	<b>105</b>
27.	<b>Quchqorova Nargiza Mamajonovna Yo‘lchiyeva Shaxloxon Obidjon qizi</b>	Boshlang‘ich sinflarda iqtisodiy bilimlarni shakllantirishda fasilitatsion yondashuvning pedagogik samaradorligi.....	<b>109</b>
28.	<b>Quchqorova Nargiza Mamajonovna, Karimova Durdona Ulug‘bek qizi</b>	Altruizmning namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillar.....	<b>113</b>
29.	<b>Quchqorova Nargiza Mamajonovna, Karimov Abduaziz Abdulazizovich</b>	O‘smirlarni kasbga yo‘naltirishning didaktik xususiyatlari.....	<b>116</b>
30.	<b>Toshov Muxiddin, Abdurashidov Doniyor</b>	O‘zbekiston - Italiya: Ta’lim – hamkorlikning ustuvor yo‘nalishi.....	<b>119</b>
31.	<b>Toshov Muxiddin,</b>	Tabiiy fanni o‘qitishda innovatsion yondashuvga oid dolzarb masalalar.....	<b>126</b>

	<b>Hakimova Madina Abror qizi</b>		
32.	<b>Toshov Muxiddin, O`rinova Hadiya</b>	Jadidchilik harakatida Abdulla Avloniyning ma`rifatparvarlik faoliyati.....	<b>135</b>
33.	<b>Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna, Muxammadjonova Nozima Isroiljon qizi</b>	O`quvchilarning milliy tafakkurini rivojlantirishda xalq o`yinlarning ahamiyati.....	<b>144</b>
34.	<b>Bayjonov Furqat Baxramovich, Ravshanova Gulchexraoy</b>	Pedagogik-psixologik izlanishlar yo`lida yosh tadqiqotchilarning ilm-fan va sifatli ta`lim rivojida o`rni.....	<b>149</b>
35.	<b>Taylakova Diloza Norbekovna</b>	Shaxsga yo`naltirilgan pedagogik ta`lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlari (ona tili fanini o`qitish misolida).....	<b>152</b>
36.	<b>Taylakova Dilnoza Norbekovna, Abduqodirova Gulbahor Idris qizi</b>	Innovatsion jarayonlarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari va tamoyillari.....	<b>158</b>
37.	<b>D.N.Taylakova, M.Kodirova</b>	Ta`lim va tarbiya jarayonida emotsional va kognitiv yondashuvlarning nazariy-metodologik asoslari.....	<b>163</b>
38.	<b>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna, Nosirova Zamira Xosil qizi</b>	Zamonaviy ta`limda an`anaviy va innovatsion metodlarning uyg`unligi.....	<b>169</b>
39.	<b>Ongarov Mansurbek Bayrambekovich, Risiyeva Zilola Ziyodulla qizi</b>	Maktab o`quvchilariga nafas olish mavzusini o`qitishda yangi pedagogik innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	<b>173</b>
40.	<b>Hojiyeva Zulfiya O`ktamovna, Murodova Dilshoda</b>	Hamkorlik pedagogikasi asosida bo`lajak o`qituvchilarni tayyorlash masalalari.....	<b>176</b>
41.	<b>Shomurodov Jamshid Olimboy o`g`li, Ibrohimova Zarnigor Ilxomovna</b>	Kreativ yondashuv asosida o`quvchilarda ma`naviy dunyoqarashni kengaytirishning pedagogik-psixologik yo`nalishlari.....	<b>182</b>
42.	<b>Shomurodov Jamshid Olimboy o`g`li, Xalimbetova Dildora Alimboyevna</b>	O`quvchi-yoshlarda ijtimoiy tarbiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	<b>188</b>